birinchidan, ularning harakat faoliyatidagi mustaqilligi. Kichik biznes subyektlari mustaqil va ularning yuqori tashkilotlari mavjud emasligi ularning erkin faoliyat yuritishiga imkoniyat yaratadi. Ularda boshqaruv ierarxiyasi mavjud emas, shu sababli ham iqtisodiy tashabbus va tez moslashuvchanlik holatining yuqoriligi kuzatiladi;

ikkinchidan, faoliyat yuritishda tezkor va o'zgaruvchan qarorlar qabul qilish imkoni mavjudligi. Yirik korxonalarga nisbatan kichik biznes subyektlarida kutilmagan vaziyatlar bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish va o'zgartirish imkoniyatlari keng hisoblanadi. Bular ko'pincha savdo va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida mavjud;

uchinchidan, ularning mahalliy shart-sharoitlarga moslashuvchanligi. Kichik biznes subyektlari mahalliy bozor talablari, urf-odatlar bo'yicha o'z boshqaruv qarorlarini ularga ko'ra moslashtira oladi;

to'rtinchidan, kichik biznes subyektlari kam xarajat evaziga yangi ish o'rinlari yaratish va shu orqali bandlik muammosini hal etishga hissa qo'shishi bilan ajralib turadi. Kichik biznes ijtimoiy jihatdan zaif aholi qatlamlari bo'lgan ayollar, nogironlar, pensionerlar va boshqalarni ish bilan ta'minlaydi hamda ular mehnatidan keng foydalanadi, yosh mutaxassislarning ishlab chiqarish tajribasi ortishiga sharoit yaratadi;

beshinchidan, ular faoliyatida tashkiliy va operatsion xarajatlarni miqdori oz bo'ladi. Korxona faoliyatida davr xarajatlari yirik korxonalarga nisbatan anchagina kam;

oltinchidan, uzoq muddatli manfaatlarning mavjudligi. Kichik biznes subyektlariga qilingan investitsiyalarni kelgusida (zarurat bo'lganda) tez va qulay shartlarda sotish orqali qaytarib olish mumkin;

yettinchidan, ixtisoslashgan yoki umumiy bozorlarda ustun tomonlariga ega ekanligi. Yirik korxonalar bosh idoralari tomonidan ishlab chiqilgan harakat rejalari orqali iqtisodiy yoki moliyaviy jihatdan qiyin holatga tushib qoladilar. Kichik biznes subyektlari esa bozordagi hatti-harakatlarini tez o'zgartira olishi va moslashuvchanligi imkoniyatlariga egadirlar.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari jahon tajribasiga ko'ra, barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy omili, iqtisodiy konyunkturaning o'zgarishlariga tez moslasha oladigan, yangi texnika va texnologiyalarni doimiy ravishda talab qiladigan, mehnat unumdorligi yuqori bo'lgan xo'jalik subyektlari sifatida keng faoliyat yuritmoqda. BMT ekspertlari ma'lumotlariga qaraganda dunyo aholisining 50 foizdan ortiqrog'i kichik biznesda banddir.

Dunyo bozorida iste'mol mollari konyunkturasini hozirgi zamon sharoitida o'rtacha har to'qqiz oyda o'zgarib turadi [39]. Agar shuni hisobga olsak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning izchil rivojlanishida nechog'lik muhim ahamiyatga ega ekani yaqqol ko'rinadi. Kichik biznes bajaradigan vazifalarning asosiylaridan biri shundan iboratki, kichik biznes jamiyatda siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi o'rta sinfni shakllantiradi. Har qanday jamiyatda o'rta mulkdorlar sinfi iqtisodiyot rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Kichik biznesning yana bir muhim vazifasi iste'mol talabining tabaqalanishi va individuallasuvi sharoitida keng turdagi tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni amalga oshirishdir. Bugungi kunda keng rivojlanmagan kichik biznes zamonaviy iqtisodiyotni tasavvur etib bo'lmaydi. U bir tomondan qandaydir darajada yirik korxonalar bilan raqobatda bo'ladi va shu nuqtai-nazardan iqtisodiyotni bozor konyunkturasini o'zgarishlariga, moda va iste'molchilar didi tez-tez almashib turishiga iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurishga yordam beradi. Ikkinchi tomondan, kichik korxonalarning katta qismi yirik biznes bilan hamkorlik qiladi, ularga xos bo'lgan texnik konservatizmni bartaraf etishga ko'maklashadi. Kichik biznesni rivojlantirish bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirish va hududiy monopolizmga barham berishga, raqobat muhiti vujudga kelishi va kengayishiga, ilmiy texnika natijalarini ishlab chiqarishga joriy etishga, eksport salohiyati yuksalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kichik biznesning respublikamizda rivojlanishi quyidagi ustuvorliklarga ega: turli ijtimoiy guruhlar daromadlarining nomutanosibligini silliqlab turuvchilik roli mavjud; faol va tadbirkor shaxslar, yuqori darajali biznesmen-



lar shakllanishiga, iqtisodiyotning turli sektorlari o'rtasida o'zaro mustahkam aloqalar o'rnatishga, jamiyatda siyosiy vaziyatni kafolatlovchi o'rta sinf shakllantirilishiga, nisbatan kam mablag'lar hisobiga yangi ish joylari yaratilishiga, texnologik, texnik va tashkiliy yangiliklar tez tatbiq etilishi va bevosita ishlab chiqarilishiga, raqobat muhiti yuzaga keltirilishiga va monopol korxonalar kamayishiga xizmat qilmoqda.

Kichik ishlab chiqarishda xususiy biznes yetakchilik qilishi zarur deb hisoblaymiz va bunda tadbirkorlik faoliyatining taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:


1. Iqtisodiyot tarmoqlarining bozor munosabatlari asosida faoliyat yuritishi. Bunday holatda manfaat va talab doirasi kengayadi, ommaviy talab bilan birga individual talab ham ortadi. Individual talabni tez va sifatli qilib faqat kichik korxonalargina qondira oladi.
2. Tadbirkorlarning mulki, huquqi va iqtisodiy manfaatlarining himoyalashiga huquqiy va davlat tarkibidagi idoralar kafolatining mavjudligi.
3. Tadbirkorlik sohasini davlat tomonidan soliq, kredit, davlat bojlari va boshqa imtiyoz hamda preferensiyalar berish bilan qo'llab-quvvatlash.
4. Davlat va munitsipal (mahalliy) korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish.
5. Bozor iqtisodiyoti infratuzilmasining (turli innovatsion markazlar, banklar, birjalar, sug'urta kompaniyalari, reklama agentliklari va boshqalar) taraqqiy topganligi.
6. Tadbirkorlik subyektlarining dunyo bozorlariga chiqish imkoniyatining yaratilganligi.

Yuqorida keltirilgan shart-sharoitlarning ma'lum qismi bugungi kunda mamlakatimizda yaratilgan. Ammo talab darajasida ta'minlanmagan va shart-sharoit yaratilmagan omillar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- moddiy ta'minlanganlik darajasi ortib borayotgan aholi qatlamlarining individual talablarini o'rganish va ushbu talablarni ta'minlash bo'yicha izlanishlar yetarli darajada olib borilayotgani yo'q;
- davlat va mahalliy korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish ishlari haligacha sekinlik bilan davom etmoqda;
- tadbirkorlik subyektlarini kredit mablag'lari bilan ta'minlashda tijorat banklarining monopolligi saqlanib qolmoqda va natijada ular tomonidan taqdim etilayotgan kredit foizlari yuqorilgicha qolmoqda;
- fond birjalari investitsiya mablag'larining yetakchi manbaiga aylana olmayapti;
- sug'urta kompaniyalari tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq tavakkalchiliklarning kafolatchisi sifatidagi mavqeiga erisha olgani yo'q.

Yuqoridagi bo'limlarda ta'kidlaganimizdek har qanday tadbirkorlik faoliyati risk bilan bog'liq. Tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy va boshqa faktorlar tadbirkorlik faoliyatiga turlicha ta'sir ko'rsatadi va bu ta'sirlar natijasi ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Bu natijani esa oldinday bilish qiyin. Shuning uchun tadbirkor o'z faoliyati bilan bog'liq risklarning yuz berish ehtimolligini minimum darajaga keltirishga harakat qilishi kerak.

Risklarni baholash va boshqarish borasidagi harakatlar texnik yoki huquqiy xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Jahon amaliyotida tadbirkorlik subyekti tomonidan amalga oshiriladigan bunday tadbirlar jamlamasi risk-menejment deb ataladi. Texnik tadbirlar sifatida: diversifikatsiya (investitsiya mablag'larini iqtisodiyotning turli sohalariga yo'naltirish); zahira fondini tashkil etish; zamonaviy informatsion tizimlarni qo'llash kabilarni keltirish mumkin. Huquqiy tadbirlar sifatida tadbirkorlik subyektlari faoliyati bilan bog'liq risklarni kamaytirish maqsadida davlat tomonidan qonun va qarorlarning qabul qilinishi, tarmoq miqyosida turli me'yoriy hujjatlar qabul qilinishi, to'g'ridan to'g'ri tadbirkorlik subyekti tomonidan turli ko'rinishdagi tartib-qoidalar belgilanishini keltirish mumkin.



2-rasm: Foyda hajmining tavakkalchilik darajasiga bog'liqligi

Bular ichida riskni boshqarishning eng maqbul usullaridan biri sug'urta xizmatlaridan foydalanishdir. Tadbirkorlik riskini sug'urtalashtirishda sug'urta hodisasi natijasida ko'riladigan real zarar hamda shu bilan birga boy



berilgan foyda sug'urtalanishi mumkin. Tadbirkorlik riskining tabiatini tushunish uchun risk va foydaning o'zaro aloqasi fundamental asosga ega ekanligini bilish zarur. Tadbirkor o'z faoliyati bilan bog'liq tavakkalchiliklarga yo'l qo'yadi, chunki buning orqasida foyda ko'rish ehtimolligi bor. Tadbirkor biladiki, u amalga oshirayotgan harakatlar va u bilan bog'liq xarajatlar kelajakda foyda keltirishi yoki zararga olib kelishi mumkin. Yuqori darajadagi riskka yo'l qo'yish yuqori darajada foyda olishga erishish ehtimolini yaratadi va aksincha past darajadagi riskka yo'l qo'yish bilan kamroq foyda olish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin. Buni quyidagi rasm orqali ifodalash mumkin (2-rasmga qarang).

Bunda: T1 – kam darajadagi tavakkalchilik mavjud bo'lgan holat va bunda o'z-o'zidan olinadigan foyda – F1 kam bo'ladi, T2 – o'rtacha darajadagi tavakkalchilik mavjud bo'lgan holat va bunda olinadigan foyda F2 – o'rtacha bo'ladi, T3 – yuqori tavakkalchilik darajasiga ega holat bo'lib, bunda olinadigan foyda – F3 – yuqori bo'ladi. Demak, tadbirkorlik subyekti yuqori darajada foyda olish uchun tavakkalchilik darajasi yuqori bo'lgan holatga yo'l qo'yishiga to'g'ri kelishi mumkin. Ammo bu bir tomondan xatarli, chunki u bu harakat bilan foyda emas, balki zararga tushib qolishi ham mumkin. Shuning uchun bunday holatda sug'urta xizmatlaridan foydalanish ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbirkorlik subyekti sug'urta xizmatlaridan foydalanishi uchun ushbu xizmatlarning ko'pgina xususiyatlari muhim o'rin tutadi, bular sifatida ushbu xizmatning ishonchlili, ya'ni sug'urta hodisasi yuz berganda ko'rilgan zararni o'z vaqtida va to'liq qoplanishi, xizmat haqi, ya'ni sug'urta mukofotining tadbirkor imkoniyatiga mos kelishi va boshqa omillar.

Bizning fikrimizcha, tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasi tadbirkorlik subyektining aylanma va boshqa aktivlari, foydaning yo'qotilishi, qo'shimcha xarajatlar va foydaning yo'qotilishi bilan ifodalanuvchi moliyaviy natijalardan kompleks sug'urta himoyasini taqdim etuvchi xizmat turi hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyati tavakkalchiliklaridan himoya qilish bilan bog'liq barcha sug'urta turlarini qo'llashni quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich kapitalni asosiy va aylanma fondlarga, ilmiy-texnik mahsulotlar hamda qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish bilan bog'liq. Bunda qo'yilgan kapitalning sug'urta ta'minoti investitsiyalarni sug'urtalash va moliyaviy kafolatlar berish bilan amalga oshiriladi.

Ikkinchi bosqichdagi sug'urta himoyasi turli ko'rinishdagi mulkiy sug'urta shartnomalari orqali amalga oshiriladi. Bunday shartnomalar orqali tadbirkorlik subyektining mulkiga stixiyali hodisalar, katastrofalar, uchinchi shaxslarning noqonuniy hatti-harakatlari natijasida yetkazilgan zararlar hamda tadbirkorlik subyektining uchinchi shaxslarga yetkazgan zararlar sug'urtalanadi. Bundan tashqari ushbu bosqichda turli sabablar natijasida ishlab chiqarishning to'xtab qolishi oqibatida ko'riladigan zararlar sug'urtasi amalga oshiriladi.

Uchinchi bosqichda hamkorning to'lovni amalga oshirmasligi, eksport kreditlari bilan bog'liq xatarlar sug'urtalanadi.

Tadbirkorlik faoliyati nazariyasi doirasida iqtisodiyot tarmog'idagi jami insonlar faoliyatining funksiyalarini ikkiga bo'lish mumkin, ya'ni yollanma mehnat hisobiga amalga oshadigan faoliyat va to'g'ridan to'g'ri tadbirkorning o'zi tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat.

Yollanma mehnatdan foydalanish evaziga amalga oshadigan tadbirkorlik faoliyatida uch yo'nalishdagi xavf-xatarlar yuzaga keladi. Birinchi yo'nalishdagi xavf-xatarlar to'g'ridan to'g'ri tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq xatarlar bo'lib, bular jumlasiga ishlab chiqarishdagi uzilishlar bilan bog'liq xavflar, hamkorlar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha shartnoma shartlarining bajarilmasligi xatarlari, bozor konyunkturasidagi o'zgarishlar bilan bog'liq xatarlar, mulkning yo'qotilishi yoki zarar ko'rishi bilan bog'liq xatarlar va boshqalar. Ikkinchi yo'nalishdagi xavf-xatarlar yollanma ishchilarning hayoti va sog'lig'i bilan bog'liq xatarlarning yuzaga kelishidir. Uchinchi yo'nalishdagi xatarlar to'g'ridan to'g'ri tadbirkorning o'z hayoti va sog'lig'i bilan bog'liq xatarlarning yuzaga kelishidir.

Yollanma mehnatdan foydalanilmagan holda amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyatida faqatgina yollanma ishchilar hayoti va sog'lig'i bilan bog'liq xatarlar mavjud emasligi bilan farqlanadi.

Tadbirkorlik faoliyatining ikkala ko'rinishida ham yuzaga keladigan xatarlarni sug'urta vositasida kafolatlash tadbirkor faoliyatining bir tekisda barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Endi tadbirkor oldida sug'urta xizmatlaridan qanday qilib samarali tarzda foydalanish masalasi ko'ndalang turadi. Tijoratga asoslangan sug'urta tashkilotlari orasidan ishonchli, arzon va qulay sug'urta xizmatini ko'rsatadigan sug'urta tashkilotini qanday qilib topish mumkin va umuman shunday tashkilotni topishning iloji bormi? O'zbekiston misolida olib qaraydigan bo'lsak, tadbirkor uchun bunday tashkilotni topish mushkul. Chet el tajribasidan kelib chiqadigan bo'lsak, bu masalada brokerlik tashkilotlari yordam berishi mumkin, ammo O'zbekistonda samarali faoliyat ko'rsatayotgan brokerlik tashkilotining o'zi yo'q. Reklama faoliyati ham rivojlanmagan. Sug'urta agentlariga murojaat qiladigan bo'lsa, ular albatta o'zi xizmat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyasini ishonchli deyishi aniq.

Shuning uchun tadbirkorning o'zi sug'urta sohasi, sug'urta faoliyati, sug'urta bozori kabi tushunchalarga ega bo'lishi, sug'urta bozorining holati bilan qiziqishi, ushbu bozorda faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompani-



yalari faoliyatini imkon qadar o'rganishi va bunda ushbu kompaniyalarga mamlakat reyting agentliklari hamda xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilgan reyting ko'rsatkichlari, bundan tashqari sifat sertifikatlariga egaligiga, hamda tadbirkor sug'urtalamoqchi bo'layotgan risklarni sug'urtalashga ixtisoslashganligiga e'tiborni qaratishi zarur.

Yuqoridagi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tadbirkor sug'urta kompaniyasini tanlagandan keyin ushbu kompaniyaga ariza bilan murojaat qilishi va ushbu arizada qanday risklarni sug'urtalamoqchi ekanligini va o'z xo'jalik subyekti to'g'risidagi talab qilingan ma'lumotlarni taqdim etishi zarur. Shundan keyin sug'urta kompaniyasi sug'urta shartnomasini taqdim etgan holatda shartnomaning barcha bandlarini yaxshi o'rganib chiqishi va zarur o'zgartirishlarni kiritishni taklif etishi mumkin. Shunday holatda ikkala tomon uchun ham ma'qul bo'lgan sug'urta shartnomasi tuzilishiga erishish mumkin.

Shartnomaning amal qilishi davrida shartnomada tomonlar uchun belgilangan majburiyatlarga amal qilinishi muhim hisoblanadi. Sug'urtalovchining majburiyatlari sifatida yuridik manzil o'zgargan holatda o'z vaqtida xabar berish, to'lovga qobillik yo'qolgan holatda bu to'g'rida o'z vaqtida xabar berish va qonunchilikda belgilangan choralarni ko'rish va eng asosiysi sug'urta hodisasi yuz berganda qoplamaning o'z vaqtida to'lab berish hisoblanadi. Sug'urtalanuvchining majburiyati sug'urta shartnomasini tuzgan davrdagi holatdan boshqacha holat yuzaga kelgan va bu sug'urta hodisasining yuz berish ehtimolligining oshishiga olib kelgan holatda bu to'g'rida sug'urtalovchini xabardor qilish va sug'urta hodisasi yuz berganda o'z vaqtida sug'urtalovchini xabardor qilish hamda zarar hajmini kamaytirish uchun zarur choralarni ko'rishdan iborat.

Ma'lumki, O'zbekistonda sanoatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda va bunga, asosan tadbirkorlik subyektlari soni va faoliyatini kengaytirish hisobiga erishish ko'zda tutilmoqda. Shuning natijasi o'laroq, mamlakat iqtisodiyotida sanoatning ulushi ortib bormoqda. Bu esa o'z-o'zidan sanoat sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati bilan bog'liq risklarni sug'urta himoyasiga olishni rivojlantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Ishlab chiqarish riski deganda ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlaridagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarning mos kelmay qolish ehtimolligi tushuniladi. Rossiyalik olim A. P. Arxipovning ta'kidlashicha, ishlab chiqarish riski mahsulot ishlab chiqarish (tovar va xizmatlar) jarayonida tannarxning oshib ketishi, ishchi kuchining yo'qotilishi, ishlab chiqarishda yangi usullarni qo'llashda xatoliklarga yo'l qo'yilishi kabilar bilan bog'liq [39].

Ko'pgina sug'urta kompaniyalarining shu yo'nalishdagi sug'urta qoidalarini o'rganish shunday xulosaga kelish imkonini berdiki, ushbu sohadagi asosiy muammo sug'urta obyekti va predmetini belgilab olishdagi chalkashliklar hisoblanadi.

Ishlab chiqarish sohasi bilan bog'liq xavflarni sug'urtalashda ba'zi kompaniyalar sug'urta predmeti sifatida ishlab chiqarishdagi uzilishlarni qabul qilsalar, ba'zi kompaniyalar ishlab chiqarishdagi uzilishlar natijasida yuzaga keladigan moliyaviy riskni sug'urta predmeti sifatida qabul qiladilar, yana boshqalari esa mulk va ishlab chiqarishdagi uzilishlarni bitta predmet sifatida qabul qiladilar.

Bizningcha, har qanday ko'rinishdagi sug'urta hodisasi ham oxir-oqibatda moliyaviy yo'qotishga olib keladi, ammo moliyaviy faoliyat bilan bog'liq risklar alohida risklardir. Shuning uchun ishlab chiqarishdagi uzilishni moliyaviy risk deb atash chalkashlikka olib keladi. Mulkiy sug'urta va ishlab chiqarishdagi uzilishlar sug'urtasini bitta predmet sifatida qabul qilish ham tomonlarning sug'urta munosabatlaridagi tushunmovchiliklarni yuzaga keltiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, xulosa qilish mumkin, sug'urta faoliyatining ushbu yo'nalishini ishlab chiqarishdagi uzilishlardan sug'urta deb atash to'g'ri bo'ladi. Bunda sug'urta predmeti sifatida ishlab chiqaruvchi faoliyati turli sabablar natijasida to'xtamasdan davom etganda olishi mumkin bo'lgan daromadi hamda ishlab chiqarishda uzilish yuz bergan holatda ham amalga oshirish davom etgan xarajatlar hisoblanadi. Ishlab chiqarishdagi uzilishlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq xatarlarni sug'urtalash o'ziga xos sug'urta turi bo'lish bilan birga, ushbu sug'urta tadbirkorlik faoliyatining barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. ACRA (Analytical Credit Rating Agency) – xalqaro kredit reytingini tahlil qilish va baholash agentligi.
2. Научный доклад Исследование подходов к гармонизации законодательства на страховых рынках Евразийского экономического союза, 2016. https://nifi.ru/images/FILES/Reports/doklad_eaeu.pdf
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yilning 2-avgustidagi "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.08.2019-y., 07/19/4412/3512-son.
4. Манэс А. Основы страхового дела /сокр. пер.с нем. – М.: Издат. Центр ", 1992.
5. Bland D. Insurance: Principles and Practice, The Chartered Insurance Institute 1993, perevod na russkiy yazyk, 1998. – 39–41 s.



6. Гинсбург А.И. "Страхование" уч.пособие, Питер, 2003.
7. Павлова Е.А. "Страхованиемалогобизнесавсфереуслугкакформаподдержкииразвитияпредпринимательства". Автореферат диссертации на соискание уч.степени к.э.н. Москва 2002.
8. Ермасов Н.Б., Ефимова Н.Ю. "Страхование" уч.пособие, Москва, Юрайт, 2005.
9. Удалов С.А. Страхование от несчастных случаев на производстве в Российской Федерации. Автореферат диссертации на соискание уч.степени к.э.н. Москва, 2005.
10. Жучков С.В. Правовое регулирование страхования предпринимательского риска в России, Автореферат диссертации на соискание уч.степени к.э.н. – Москва, 2005.
11. Сплетухо Ю.А., Дюжиков Е.Ф. Страхование уч.пособие. – Москва, ИНФРА-М, 2006.
12. Грищенко Н.Б. "Основы страховой деятельности" уч.пособие. – Москва, Финансы и статистика, 2006.
13. Парагульгов Х.А. Страхование предпринимательских рисков. Автореферат диссертации на соискание КЭН, Москва, 2006.
14. Детушев В.А. Развитие страхования предпринимательских рисков в России. Автореферат диссертации на соискание КЭН, Иркутск, 2006.
15. Денисова И.П. "Страхование" уч.пособие, Изд. "Март", – Москва, Ростов на-Дону 2007.
16. Федорова М.А. Методические основы повышения эффективности организации страхования от перерывов в производстве. Автореферат диссертации на соискание уч.степени к.э.н. – Москва, 2008.
17. Короткова Ю.Е. "Краткий курс по страхованию". – Москва, Оней книга, 2008.
18. Никитин Е.К. "Обеспечение устойчивости предпринимательской структуры на основе стратегий страхования". Автореферат диссертации на соискание уч.степени к.э.н. Хабаровск, 2011.
19. Одинцова М.А. "Совершенствование механизма планирования на основе страхования рисков для предприятий малого и среднего бизнеса в промышленности". Автореферат диссертации на соискание уч.степени к.э.н. – Москва, 2011.
20. Зеленчук В.А. Совершенствование взаимного страхования от несчастного случая в предпринимательской деятельности. Автореферат диссертации на соискание КЭН, Москва, 2013.
21. Чемерисова Е.Ю. "Договор страхования предпринимательских рисков". Автореферат диссертации на соискание уч.степени к.э.н. Казан, 2015.
22. G'ulomov S. S., Boyev H. I. Valyuta, kredit, moliya va sug'urta muammolari. – Toshkent Mehnat, 1998.
23. Ашрафханов Б., Мирсадиков М. Развитие страхового законодательства республики//Рынок, деньги и кредит. – Т., 2002. №11–12. – 30 с.
24. Husanov R. H., Yadgarov A. A. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta tizimi T. : Yangi asr avlodi, 2005. – 79 b.
25. Shennayev X. Sug'urta ishi, – T. : Turon-iqbol, 2006. – 224 b.
26. Davlatov A. Avtofuqarolik javobgarligining himoyasi.// Bozor, pul va kredit. Toshkent, 2008. №9. – B. 54–56.
27. Abduraxmonov I. Majburiy sug'urta ijtimoiy-iqtisodiy o'sish omili.// Bozor, pul va kredit. Toshkent, 2009. №5, – B. 32–33.
28. Гайбуллаев Б. Регулирование инвестиционной деятельности страховщиков.//Бозор, пул ва кредит. – Тошкент, 2009. №5. – Б. 50–53.
29. Mavlonova I. Sug'urta-ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlar himoyasi. // Bozor, pul va kredit. Toshkent, 2009. №10. – B. 53–55.
30. Qo'ldoshev Q. M. Sug'urta bozori. – T. : Iqtisod-moliya, 2010. – 110 b.
31. Шеннаев Х. Проблемы становления страхового рынка в Узбекистане, Москва ФА, 1996, Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н.
32. Xodjayeva M. X. Sug'urta faoliyati buxgalteriya hisobi va auditing hozirgi ahvoli va uni takomillashtirish yo'llari, i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T. : BMA, 2001. – 130 b.
33. Асқарова М.Т. Развитие системы страхования в обеспечении экономического роста в условиях рыночных преобразований в Республики Узбекистан, автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. – Т.: Институт экономики АН РУз, 2003. –132 ст.
34. Boymurotov T. M. O'zbekistonda sug'urta faoliyati va uni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish, i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T. : Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, 2004. –125 b.
35. Nurullayev A. S. O'zbekistonda fermer va dehqon xo'jaliklarini sug'urtalash masalalari. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T. : BMA, 2007.
36. Qo'ldoshev Q. Sug'urta bozorini rivojlantirish va boshqarish muammolari, i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T. : BMA, 2009. – 130 b.
37. Abduraxmonov I. O'zbekiston respublikasida javobgarlikni sug'urtalashning amaliyotini takomillashtirish, i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T. : BMA, 2010. – 130 b.
38. Xaliqulova G. Sug'urta tizimi va uni amal qilish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – T. : TMI, 2019.
39. Access to finance for SMEs. European Commission. https://ec.europa.eu/growth/access-to-finance_en.
40. Simon Bell, Ghada O. Teima. "Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance". The World Bank Group, September, 2015. <http://www.worldbank.org/en/topic/financialsector/brief/smes-finance>.
41. Michael Greenstone and Alexandre Mas. Do credit Market Shocks affect the Real Ekonomu? Quasi-Experimental Evidence from the Great Recession and Normal Economic Times. November, 2012. – pp.59.
42. Egamberdiyev E. Xo'jaqulov X. Kichik biznes va tadbirkorlik. O'quv qo'llanma. –T. : Iqtisod, 2003. – 96 b.
43. Архипов А.П. О страховании рисков предпринимательской деятельности // Финансы. – М., 2002. №2. – с. 24.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.